

TASDIQLAYMAN:



Xodimlarni boshqarish bo'yicha direktor

[Signature] Rojanko Ye.T.

12 » *[Signature]* 2026 y.

TEXNIK TOPSHIRIQ

*OOO «UMS» xodimlari uchun Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan
«O'z aromatingni yarat» master-klassi xizmatlari*

**Toshkent shahri
2026 yil**

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar	3
1.1. Xizmatning nomi va tavsifi .	
2. Xizmat ko'rsatish joyi	3
3. Xizmat turlari	3
4. Xizmat ko'rsatish muddati	4
5. Xizmat ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjatlar	4
6. Kafolatlar va mas'uliyat	4
7. Maxsus shartlar	4

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Xizmatning nomi va tavsifi

Nomi: Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan kompaniya xodimalari uchun «O'z aromatingni yarat» master-klassi tadbirini amalga oshirish doirasida xizmatlar ko'rsatish.

Tavsifi: Master-klass Buyurtmachi hududida, 609-xonada o'tkaziladi. Xonada ikki asosiy ish stoli tashkil etiladi:

- birinchi stol — aromatik kompozitsiyalarni tanlash zonasi, bu yerda ishtirokchilar taqdim etilgan hidlar bilan tanishib, o'zlariga yoqqan notalarni tanlaydilar;
- ikkinchi stol — individual atirni tayyorlash zonasi, bu yerda mutaxassislar rahbarligida tayyor aromat yaratiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan bir vaqtning o'zida maslahat berish va aromat yaratish jarayonini kuzatib borish uchun 10 nafar mutaxassis-parfyumer jalb etiladi.

Ishtirokchilar umumiy soni — kompaniyaning 50 nafar xodimasi. Ishtirokchilar master-klassda 12:00 dan 16:00 gacha navbat tartibida qatnashadilar. Master-klass yakunida har bir ishtirokchi 20 ml hajmdagi individual yaratilgan atirni oladi.

1.2. Xarid maqsadi

Mazkur faoliyat formati xodimalar uchun nafaqat yoqimli bayramona muhit yaratishga, balki emotsional dam olishga xizmat qiluvchi, ularni jarayonga faol jalb etadigan tajribani ham ta'minlash imkonini beradi.

1.3. Xizmatlarga qo'yiladigan talablar

Ko'rsatiladigan barcha xizmatlar sifatli bo'lishi, shartnoma shartlari va buyurtmachi talablariga qat'iy rioya qilgan holda taqdim etilishi lozim.

2. Xizmat ko'rsatish joyi

Amir Temur shoh ko'chasi, 24 uy

3. Xizmat turlari

№	Tadbir nomi	Tadbir nomi Tafsilotlar
1	«O'z aromatingni yarat» master-klassi. Ishtirokchilarning umumiy soni — kompaniyaning 50 nafar xodimasi.	Ko'chma parfyumeriya master-klassi «O'z aromatingni yarat». Har bir ishtirokchi parfyumer rahbarligida o'zining individual aromatini yaratadi.
Итого		

4. Xizmat ko'rsatish sifatiga qo'yiladigan talablar

Ijrochi quyidagilarga majbur:

- Ishtirokchilarga bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatish uchun zarur miqdordagi mutaxassis-parfumerlar ishtirokini ta'minlash;
- Master-klassni o'tkazish uchun barcha zarur uskunalar, materiallar va aromatik kompozitsiyalar mavjudligini ta'minlash;
- Ishtirokchilarga xizmat ko'rsatish jarayonini uzoq kechikishlarsiz va navbat tartibiga rioya qilgan holda tashkil etish;
- Sanitariya me'yorlariga rioya etilishini, foydalaniladigan materiallar xavfsizligini va master-klassni o'tkazish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash;
- Master-klass yakunida har bir ishtirokchiga tayyor individual parfyumni topshirishni ta'minlash.

5. Xizmat ko'rsatish muddati

Xizmatlar **2026 yil 6 mart kuni** ko'rsatilishi lozim.

6. Xizmat ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjatlar

- Xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma
- Hisob / hisob-faktura
- Har ikki tomon imzolagan bajarilgan xizmatlar dalolatnomasi

7. Kafolatlar va mas'uliyat

- Xizmat ko'rsatuvchi taqdim etiladigan xizmatlarning sifatiga va shartlarga to'liq mosligiga kafolat beradi.
- Agar xizmat sifatsiz ko'rsatilsa, Ijrochi kamchiliklarni o'z hisobidan bartaraf etishi yoki xizmatni takroran taqdim etishi shart.
- Muddatlarning buzilishi yoki tadbirning amalga oshmay qolishi bo'yicha mas'uliyat shartnomada belgilangan tartibda qo'llanadi.

8. Maxsus shartlar

- Tashkilotga oid barcha xarajatlar — bron, logistika, bezak va boshqalar — xizmatning umumiy qiymatiga kiritiladi.
- Buyurtmachi tadbirlar rejasi va ssenariysini oldindan kelishishni talab qilish huquqiga ega.

Tayyorladi:

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'limi
katta mutaxassisi



Irgasheva M.A.

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'limi
yetakchi mutaxassisi



Qlicheva Yo.Z.